O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

"TASDIQLAYMAN"
Buxoro davlat universiteti rektori
_____________ O. X. Xamidov
2023-yil "29" august
Ro'yxatga olindi: №
2023-yil "____" _____________

**MATBUOT TILI**
**(kechki)**

**FANINING O'QUV DASTURI**

| | | |
|---|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 200 000 | - San'at va gumanitar fanlar |
| **Ta'lim sohasi:** | 230 000 | - Tillar |
| **Ta'lim yo'nalishi:** | 60 230 100 | - Filologiya va tillarni o'qitish (ingliz tili) |

**Buxoro – 2023**

Сканировано с CamScanner

| Fan/modul kodi<br>MATT1704 | O'quv yili<br>2027/2028 | Semestr<br>7 | ECTS – Kreditlar<br>4 | | |
|---|---|---|---|---|---|
| Fan/modul turi<br>Majburiy fan | Ta'lim tili<br>Ingliz | | Haftadagi dars soatlari<br>2 | | |
| 1. | Fanning nomi | Auditoriya mashg'ulotlari (soat) | Mustaqil ta'lim (soat) | Jami yuklama (soat) | |
| | Matbuot tili | 30 | 90 | 120 | |

I. **Fanning mazmuni**

Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarga OAV tili, uslubi haqidagi bilimlarning nazariy asoslarini, ommaviy kommunikasiyaning lisoniy tushunchalari va kategoriyalarini, lisoniy tamoyillarini o'rgatish hamda ularni amaliyotda qo'llay olish ko'nikmasini va malakasini hosil qilish.

Fanning vazifasi – talabalarda OAV tili va uslubi miqyosidagi hodisa va jarayonlarga lisoniy-uslubiy yondashuv hamda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, OAV tili va uslubining o'ziga xos jihatlari haqida amaliy ko'nikmalarni shakllantirish.

II. **Asosiy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)**

**Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**1-mavzu. "Matbout tili va uslubi" faniga kirish**

"OAV tili va uslubi" faniga kirish. Ommaviy axborot vositalari tilining axboriy-kommunikativ mohiyati. OAV tili tushunchasining talqini. OAV tilining ramziy, impressiv va ekspressiv vazifalari.

**2-mavzu. Ommaviy axborot global matn sifatida.**

Ommaviy axborot global matn sifatida. OAV tilida zamonaviy yondashuvlar. OAV tili ijtimoiy–lisoniy hodisa sifatida. OAV tilining ramziy, impressiv va ekspressiv vazifalari.

**3- mavzu. OAV tili taraqqiyotining tamoyillari.**

OAV tili taraqqiyotining tamoyillari. Axborot tarqatishda diskursiv jarayon. OAV semiotikasi. Mass-mediaviy diskurs. OAVning kognitiv vazifasi. OAV tili yaratgan dunyo manzarasi.

**4-mavzu. OAV matnining shakllanishida lingvistik omillarning o'rni.**

OAV matnining shakllanishida lingvistik omillarning o'rni. Medianutq va mediamatn. Matnning janr turi.

**5- mavzu. Publisistik uslubning belgilari va matbuotda namoyon bo'lishi**

Publisistik uslubning belgilari va matbuotda namoyon bo'lishi. Publisistik uslub va uning yozma hamda og'zaki nutqda aks ettirilishi.

**6 –mavzu. Funksional uslubning o'ziga xos xususiyatlari**

Сканировано с CamScanner

Funksional uslubning o'ziga xos xususiyatlari. Publisistik matn va unda muallifning ishtiroki. OAV matnida standartlik.

**7- mavzu. OAV matnida ekspressiv vositalar**

OAV matnida ekspressiv vositalar. Ijtimoiy baho. Mualliflikning o'ziga xos ko'rinishi, muallif pozisiyasi, ideologema va qadriyatlar ko'rsatkichi. Muallif "Men"i.

**8 – mavzu. Matbuot tili va uslubi**

Matbuot tili va uslubi. Matbuot tilining asosiy vazifalari.

**9-mavzu. Gazeta tili leksikasi**

Gazeta tili leksikasi. Gazeta tilining ijtimoiy hodisalar bilan uzviy bog'liqligi. Gazetaga xos konseptual leksik baholash. Kommunikativ funksiya. Ijtimoiy-siyosiy leksika.

**10-mavzu. Maqolalar mazmun-mohiyatini baholash vositalari.**

Maqolalar mazmun-mohiyatini baholash vositalari. Gazeta tilining janr xususiyatlari. Gazeta tilining axboriy janr xususiyatlari. Gazeta tilida andozaviylik.

**11 –mavzu. Lisoniy qoliplar**

Axborot yetkazish zarurati. Lisoniy qoliplar. Xabar, reportaj hisobot va interv'yu tili. Tahliliy janrdaandozaviylik hamda ekspressivlik.

**12-mavzu. Televidenie tili va uslubi**

Televidenie tili va uslubi. Televedenie tilining janr xususiyatlari. Televidenie tilining janr xususiyatlari. Korrespondensiya tili.

**13-mavzu. Radio tili va uslubining o'ziga xos xususiyatlari**

Radio tili va uslubining o'ziga xos xususiyatlari. Radionutqning mavqei. Radioeshittirishlar turi va radionutqning toifalari. Radiokommunikasiyaning belgilari. Radionutqda lisoniy vositalar.

**14-mavzu. Internet tilining umumiy tamoyillari va janr spesifikasi**

Internet tilida standartlik va ekspressivlik tamoyili. Internet tilining leksik va semantik darajasi. Internet tilining sintaktik darajasi va punktuasiya.

**15-mavzu. Badiiy-publisistik janrdagi materiallar tilining o'ziga xosligi**

Maqola tili. Taqriz tili. Badiiy-publisistik janrdagi materiallar tilining o'ziga xosligi. Esse tili. Ocherk tili. Fel'eton va pamflet tili.

**Amaliy mashg'ulotlarda quyidagi mavzular muhokama qilinishi tavsiya etiladi:**

**Zamonaviy gazeta tilining ekspressivlik tendensiyalari.**

Ekspressivlik va ifodalilik tushunchalari. Zamonaviy gazetada ekspressiv kontekstlar yaratish usullari. Gazeta sarlavhasining ta'sirchanligi. Gazetada presedent matnlar o'rni. Gazetada badiiy-tasviriy ifodalar. Ta'sirchanlik matbuot janrlarining asosiy xususiyatlaridan biri sifatida.

**Televidenie tili va uslubining o'ziga xos xususiyatlari.** Telenutqning lisoniy belgilari.Televidenieda ekstralingvistik vositalar. To'g'ridan-to'g'ri efirning ekspansiyasi.

Сканировано с CamScanner

"Tasvir–ovoz–nutq" uchligi.Telenutq realizasiyasida ekstralingvistik omillar. Prosodiya. Nutqning prosodik tavsifi. "Ekran tili" termini.Kadr va kadr ortidagi nutq. Intimizasiya. Dialogizasiya. Individualizasiya. Tagmatn (podtekst).

**Radiomatnning o'ziga xos belgilari**. Oshkora muloqot. Radiodagi musiqiy ko'ngilochar eshittirishlar matni xususiyatlari. Radioda so'zlashuv nutqi. Radio tilining janr xususiyatlari. Axboriy, taxliliy va badiiy-publisistik janr xususiyatlari. Tele-radio tilida lisoniy vositalar. Ekspressivlik va televidenie hamda radioning janr xususiyatlari. Ekspressivlik, emosionallik hamda baho berish. Televidenie va radiodagi ko'ngilochar ko'rsatuv va eshittirishlar (tok-shoular) tili va uslubi bo'yicha ijodiy ishlar.

**Internet tilining umumiy tamoyillari va janr spesifikasi.** Internet matnning lingvistik darajasi. Internetning pragmatik aspekti. Global tarmoqdagi axboriy yoki yangiliklar hamda maxsus ta'lim janrlari til xususiyatlari. Global tarmoqdagi qo'ngilochar janrlar. Elektron nashrlarda sarlavhalarning lingvistik jihati.

**OAV matnida nutq madaniyati masalalari.** Amaliy mashg'ulotlar mul'timedia vositalari bilan jihozlangan auditoriyada o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalari qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

**Mustaqil ishni tashkil etishning shakli va mazmuni**

Talabalarining mustaqil ishlari o'z ichiga qo'yidagi ishlarni oladi:

- mavzulariga oid til materiallarini yig'ish va ularni mustaqil o'rganish;
- mavzulariga oid referatlarni yozish va lingvistik adabiyotlarni tahlil qilish;
- badiiy adabiyotdan olingan alohida matnlarni uslubiy tahlil qilish namunasini ishlab chiqish;
- semantika va so'z yasalishi mavzulari bo'yicha tadqiqotlar o'tkazish;
- mavzulari bo'yicha ma'ruza, maqola, prezentatsiya va uslubiy ishlarni yozish;
- o'quv-ilmiy-tadqiqotlarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlarni va mavzularni chuqur o'rganish;
- faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlarini o'rganish;

Internet axborot materiallaridan keng foydalangan holda ularni qayta ishlayolish.

**Mustaqil ishlar uchun tavsiya etiladigan mavzular**

1. Gazeta sarlavhalarining lisoniy-uslubiy xususiyatlari.
2. Matbuotda jurnalist matnini tayyorlashdagi ritorik fikr, ya'ni matnni topish, joylashtirish, bezash, ifodalash.
3. Yangilikning uslubiy-janr belgilari (madaniyat xabarlari, sport, mahalliy, chet el xabarlari va boshqalar).
4. Maqolaning uslubiy, ekstralingvistik belgilari: barcha faktlar, yangi xabarlar, xabar qilinayotgan voqeaning ijtimoiy ahamiyati, operativligi.
5. Reklama matnlarining tili va uslubi.
6. Televidenieda axboriy janrning tili.

Сканировано с CamScanner

7. Radioda interv'yu va suhbat.
8. Televizion muloqot shakli
9. Ko‘ngilochar ko‘rsatuvlarning tili, uslubi.
10. Radioda analitik janr tili, uslubi.
11. Televidenie nutqining xatoliklari.
12. Internetda yangiliklar tilining xususiyatlari.
13. OAV matnining uslubiy jihatdan tahlili.
14. OAV matni ligvostilistik taxlilning ob'ekti sifatida.
15. Jurnalistikada til va uslub belgi tizimi hamda ifodalilik vositasi sifatida.
16. Turli tipdagi matnlarni qabul qilish psixologiyasi.
17. Jurnalistik diskursning kommunikativ strategiyasi.
18. Mavzuni yorituvchi OAV matnini yozish.
19. Frazeologik va leksik stilistik bo‘yoqdorlik.
20. Troplarni uslubiy bo‘yoqdorligi.
21. Grammatikada uslubiy ma'no.
22. Ekspressiv sintaksis.
23. Mavzuni yorituvchi OAV matnini yozish.
24. Matbuot tilining leksik xususiyatlari. Gazetada leksik variantlarning va dubletlar. Nutqiy-uslubiy qoliplar.
25. Gazeta ekspressiyasi va uning manbalari. Ko‘chimlar. Uslubiy san'atlar, gradasiya, antiteza, kinoya. Matnda yangi so‘zlarni yaratish. Tasviriy birikma hosil qilish.
26. Maqolaning uslubiy, ekstralingvistik belgilari: barcha faktlar, yangi xabarlar, xabar qilinayotgan voqeaning ijtimoiy ahamiyati, operativligi.
27. Gazeta sarlavhalarining lisoniy-uslubiy xususiyatlari.

Mustaqil o‘zlashtiriladigan mavzular bo‘yicha talabalar tomonidan OAV materiallarini o‘rganish, ularning tili va uslubini tahlil qilish va xulosa yozish, referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

**Fan o’qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**

- Ommaviy axborot vositalari tilining axboriy-kommunikativ mohiyati, matnining shakllanishida lingvistik-uslubiy omillar, publisistik uslubning belgilari haqida tasavvur va bilimga ega bo‘lishi;
- OAV tilining janr xususiyatlari, standartlik va ekspressivlik tendensiyalarini tushunish, tele- va radionutqni prosoidik tasniflash ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;
- OAV tili, mediamatn tahriri hodisasi va jarayonlarni tahlil qilish usullarini qo‘llash, lingvistik muammolar bo‘yicha yechimlarni qabul qilish, OAV matnini tuzish, tahlil qilish malakasiga ega bo‘lishi kerak.

**Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar**

Talabalarning Matbuot tili fanini o'zlashtirishlari uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informatsion pedagogik texnologiyalarni tatbiq

Сканировано с CamScanner

qilish muhim ahamiyatga egadir.

Fanni o'zlashtirishda turli darsliklar, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, tarqatma materiallar, elektron materiallar, ko'rgazmali qurollar, turli xil yozma test topshiriqlari, matn tahlili, turli mashqlar hamda komp`yuterlardan foydalaniladi.

Talabalarlarning amaliy malakalarini oshirish maqsadida ta'lim jarayonining individual va differentsiallashgan interaktiv metodlaridan foydalaniladi.

Mazkur fanni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalarni qo'llash nazarda tutilgan. Ma'ruza darslarida zamonaviy komp`yuter texnologiyalari yordamida prezentatsiyalar va elektron-didaktik texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiq. Kichik guruhiy musobaqalar o'tkazish tavsiya qilinadi. Amaliy mashg'ulotlarda innovatsion texnologiyalardan “Proekt”, “Prezentatsiya”, “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Sinkveyn” usullaridan keng foydalanish samara beradi.

**Kreditlarni olish uchun talablar:**

Fanga oid terminologik apparat, qonuniyatlar va asosiy tushunchalarni bilishi, semantika va so’z tuzilishi fanining imkoniyatlarini bilishi, semantikaning asosiy tushunchalariga ilmiy izoh bera olishi va ushbu tushunchalarni o’z ilmiy tadqiqotlarida qo’llay olishi, muayyan nazariy masalalarga oid fikrlarni bayon etish, ayni fikrlarga nisbatan tanqidiy munosabatini shakllantirish va ifodalash; ilmiy tadqiqot jarayonida dolzarb masalalarni aniqlay olish va til birliklarini tahlil qilishda ularning yechimini topa olish; egallagan bilimlarni o’z ilmiy tadqiqot amaliyotida qo’llashni bilish hamda joriy, oraliq va yakuniy nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish va topshirish.

**Asosiy adabiyotlar**


1. Abdusaidov S. Gazeta janrlarining tili va uslubi. Samarkand, 2001.
2. Bakieva G.X., Teshabaeva D.M. Ommaviy axborot tili.- T.:O’zkitobsavdonashriyot, 2019.- 172 b.
3. Bakieva G.X., Teshabaeva D.M. Mediamakonda matn. Monografiya.- T.: Turon-Lqbol, 2019.- 208 b.
4. Golub I.B. Stilistika russkogo yazika. – M., 2010.
5. Golub I.B. Literaturnoe redaktirovanie: ucheb. posobie. – M.: Logos, 2010.
6. Kostomarov V. G. Yazikovoy vkus epoxi.- M.,1994.
7. Smelkova Z.S., Assuirova L.V., Savova M.R., Sal'nikova O.A. Ritoricheskie osnovi jurnalistiki. Rabota nad janrami gazeti. – M., 2015.
8. Colganik G.Ya. Prakticheskaya stilistika russkogo yazika. O‘quv qo‘llanma. 4-nashr. – M.: Academia, 2010.
9. Teshabaeva D.M., Bakieva G.X., Israil M.I., Toshmuxamedova L.I., Nuritdinova M.Ch.


Сканировано с CamScanner

Jurnalistika. III jild. Medialingvistika va tahrir.- Ozbekiston, 2019. - 249 b.
10.Teshabaeva D.M. Ommaviy axborot vositalarida nutq madaniyati. Monografiya.- T.,2012.- 220 b.
11.Teshaboeva D. MOAV nutq madaniyati aspektida. - T.: Fan va texnologiya, 2011.
12.Toshaliev I.E. va b. OAV tili va uslubi. – T.Universitet, 2000.
13.Shomaksudova S., Israil M. OAVda yozma matn. Nutq va munozara.- T.: Iqtisod-Moliya, 2018.- 180 b.
14.Yazik SMI kak ob'ekt mejdissiplinarnogo issledovaniya. Ch. 1, 2.-M., 2004.

**Qo'shimcha adabiyotlar**

1. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar', №11.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda
3. O'zbekiston Respublikasining Davlat tili haqidagi Qonuni. – T., 1989.
4. O'zbekiston Respublikasining "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi Qonuni. 16.01.2007 y.
5. O'zbekiston Respublikasining "Jurnalistik faoliyatni himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni. 24.04.1997 y.
6. Abdurahmonov G'., Shukurov Sh., Mahmudov Q. O'zbek tilining tarixiy grammatikasi. – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2008.
7. Savoeva G.E. Ritoricheskie osnovi jurnalistiki. – M., 2010.
8. Brian S. Brooks, James L. Pinson, Jean Gaddy Wilson "Working with Words: A Handbook for Media Writers and Editors", 8th Edition. – Bedford/St. Martin's, 2012.
9. Qilichev Ye. O'zbek tilining amaliy stilistikasi. - T.: O'qituvchi. 1992.

**Axborot manbalari**

1. evartist.narod.ru/text12/15.htm
2. evartist.narod.ru/text12/15.htm
3. evartist.narod.ru/text12/03.htm
4. www.textfighter.org/text12/13_informatsii_kulturyi_budem_1.ph
5. revolution.allbes t.ru journalism
6. www.classes.ru/grammar/120.Maslov/html/topic_37.htmlwww.nauka- shop.com

Сканировано с CamScanner

| | |
|---|---|
| 7. vartist.narod.ru/text12/15.htm | |
| 7. | **Fanning o'quv dasturi Buxoro davlat universiteti o'quv-metodik Kengashining 2023-yil "29" august dagi 1 -sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan va tasdiqlashga rozilik berilgan.** |
| 8. | **Fan uchun mas'ul:**<br>**N.J. Bobojonova** – BuxDU, "Ingliz tilshunosligi" kafedrasi o'qituvchisi |
| 9. | **Taqrizchilar:**<br>**N.J.Djumayeva** – BuxDU, "Ingliz tilshunosligi" kafedrasi dotsenti, (PhD)<br>**Raxmatova M.M** – BuxDU, "Ingliz tilshunosligi" kafedrasi dotsenti, (PhD)<br>**N.H. Navro'zova** - BuxDU, "Ingliz tilshunosligi" kafedrasi o'qituvchisi |

Сканировано с CamScanner